Annotatsiya: Maqolada STEM ta'limi sharoitida o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan transdisiplinar metodik model ishlab chiqilgan. Texnik tafakkur tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Transdisiplinar yondashuvni STEM ta'limi bilan integratsiyalash asosida o'quvchilarda texnik tafakkurni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari aniqlangan. TPACK konsepsiyasi va transdisiplinar ta'lim tamoyillariga asoslangan model besh komponentni o'z ichiga oladi: motivatsion-maqсадli, mazmuniy, jarayonli-texnologik, nazorat-baholash va natijaviy. Pedagogik tajriba natijalari model samaradorligini tasdiqlagan. Tavsiyalar umumta'lim maktablari o'qituvchilari, metodistlar va tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: STEM ta'limi, texnik tafakkur, transdisiplinar yondashuv, metodik model, TPACK, muhandislik tafakkuri, kompyuterli fikrlash, fanlararo integratsiya.

Abstract: The article presents a transdisciplinary methodological model for developing students' technical thinking in the context of STEM education. The concept of technical thinking, its structural components, and stages of development are analyzed. The theoretical and methodological foundations for the formation of students' technical thinking are identified based on the integration of the transdisciplinary approach with STEM education. The model, grounded in the TPACK framework and the principles of transdisciplinary learning, includes five components: motivational-target, content-related, procedural-technological, control-evaluative, and result-oriented. The results of the pedagogical experiment confirmed the effectiveness of the model. The recommendations are intended for secondary school teachers, methodologists, and researchers.

Key words: STEM education, technical thinking, transdisciplinary approach, methodological model, TPACK, engineering thinking, computational thinking, interdisciplinary integration.

Аннотация: В статье разработана трансдисциплинарная методическая модель развития технического мышления учащихся в условиях STEM-образования. Проанализированы понятие технического мышления, его структурные компоненты и этапы развития. Определены теоретико-методологические основы формирования технического мышления учащихся на основе интеграции трансдисциплинарного подхода со STEM-образованием. Модель, основанная на концепции TPACK и принципах трансдисциплинарного обучения, включает пять компонентов: мотивационно-целевой, содержательный, процессуально-технологический, контрольно-оценочный и результативный. Результаты педагогического эксперимента подтвердили эффективность модели. Рекомендации предназначены для учителей общеобразовательных школ, методистов и исследователей.

Ключевые слова: STEM-образование, техническое мышление, трансдисциплинарный подход, методическая модель, TPACK, инженерное мышление, вычислительное мышление, междисциплинарная интеграция.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan texnologik transformatsiya ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Sanoat 4.0, sun'iy intellekt, robototexnika va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yosh avlodning texnik tafakkurini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Texnik tafakkur bu nafaqat texnik bilim va ko'nikmalar majmui, balki murakkab texnik muammolarni aniqlash, tahlil qilish, loyihalash va amaliy yechimlarni yaratish qobiliyatidir ^[1].

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sifatini oshirish, xususan, aniq va tabiiy fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son¹ Farmoni, 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079-son² Farmoni va boshqa me'yoriy hujjatlarda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalari belgilangan ^[6].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi STEM ta'limi sharoitida o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishning transdisiplinar metodik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental tarzda asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1) texnik tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyati va tarkibiy qismlarini aniqlash;
- 2) transdisiplinar yondashuvning STEM ta'limi bilan integratsiyasi imkoniyatlarini tahlil qilish;
- 3) o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishning transdisiplinar metodik modelini ishlab chiqish;
- 4) ishlab chiqilgan modelning samaradorligini pedagogik eksperiment orqali tekshirish;
- 5) amaliy tavsiyalar berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnik tafakkur tushunchasi va uning tarkibiy qismlari texnik tafakkur muammosi falsafa, psixologiya, pedagogika va texnika fanlari kesishmasida o'rganiladi. TU Delft tadqiqotchilari ta'kidlaganidek, texnik tafakkur va STEAMda o'rganish ko'plab perspektivalarga asoslanadi. Birinchidan, bu texnologiya va tasavvurni qo'llagan holda ko'rinmaydigan narsalarni vizuallashtirish qobiliyatidir. Ikkinchidan, bu nazariy konstruksiyalarni realistik tasvirlar sifatida qabul qilish va ular asosida xulosalar chiqarishdir. Uchinchidan, bu tasavvuriy obrazlarga asoslangan deduksiyalar va qarorlarning to'g'ri bo'lishiga hamda ular bilan shug'ullanuvchi barchaning hayot sifatini yaxshilashiga so'zsiz ishonish qobiliyatidir ^[7].

Transdisiplinar yondashuvning STEM ta'limidagi o'rni. Transdisiplinar yondashuv STEM ta'limining samaradorligini oshirishda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Turkiyaning Harezmi ta'lim modeli tajribasi shuni ko'rsatadiki, transdisiplinar yondashuv turli fanlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlab, kompyuter fanlarini ijtimoiy fanlar bilan integratsiyalash, axborotni qayta ishlash tafakkuri ko'nikmalarini moslashtirish, dasturlash va o'qitish vositalaridan samarali foydalanish, robototexnika va o'yin dizayni orqali mahsulot yaratish imkonini beradi ^[10]. Transdisiplinar yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- turli fanlar chegaralarining shartliligi va ularning o'zaro penetratsiyasi;
- murakkab real hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilganlik;
- yangi bilim va metodlarning fanlar sintezi natijasida yuzaga kelishi;
- nazariya va amaliyotning birligi.

Rossiyalik tadqiqotchilar M. Rostoka va boshqalar transdisiplinar ta'limning fizika va dasturiy injiniring integratsiyasi kontekstidagi strategiyasini asoslaganlar. Ular transdisiplinar, aksiomatik-deduktiv strategiya "fizika ↔ dasturiy injiniring" mantiqiy-semantik konstrukt bo'yicha ochiq makonda ilmiy tayyorgarlik integratsiyasini ta'minlab, fizik muhandislik ta'limi kontekstida axborotni unifikatsiya qilish va standartlashtirish imkonini berishini ta'kidlaydilar ^[11].

TPACK modeli va transdisiplinar yondashuv. TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli o'qituvchilarning texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash kompetensiyasini tavsiflashda keng qo'llaniladi. Ushbu model M. Koehler va P. Mishra tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uch asosiy komponentni o'z ichiga oladi: fan mazmuni bilimi, pedagogik bilim va texnologik bilim ^[12].

TPACK modelining transdisiplinar talqini o'qituvchi va o'quvchilarning turli fanlar hamda texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda murakkab muammolarni hal qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. ICDCO (Interdisciplinary Knowledge Acquisition and Rules-of-Thumb for Complex Task Process) instruksional modeli transdisiplinar yondashuvning amaliy ifodasidir. Ushbu model:

- a) fanlararo bilimlarni o'zlashtirishni vazifa jarayoniga integratsiyalash;
- b) murakkab vazifaning har bir bosqichini bajarishda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalarni taqdim etish orqali o'quvchilarning kompyuterli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi ^[13].

¹ <https://lex.uz/docs/-4312785>

² <https://lex.uz/docs/-5030957>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodlari sifatida quyidagilar tanlandi.

Nazariy metodlar: texnik tafakkur, transdisiplinar yondashuv va STEM ta'limiga oid xorijiy hamda mahalliy adabiyotlarni, me'yoriy hujjatlarni, o'quv dasturlarini qiyosiy-tahliliy o'rganish, nazariy umumlashtirish, model-lashtirish va tizimlashtirish.

Empirik metodlar: pedagogik kuzatuv - Toshkent shahri va Toshkent, Samarqand, Farg'ona viloyatlari-dagi 15 ta umumta'lim maktabida STEM yo'nalishidagi darslarda o'quvchilarning texnik tafakkurining namoyon bo'lishi kuzatildi. Kuzatuvlar 2024-2025 o'quv yili davomida olib borildi.

So'rovnomalar metodi - tadqiqot doirasida 185 nafar o'quvchi (7-11-sinflar) va 45 nafar o'qituvchi (fizika, informatika, matematika, texnologiya fanlari) ishtirokida anketa so'rovi o'tkazildi. So'rovnomalar o'quvchilarning texnik tafakkur darajasi, STEM fanlariga qiziqishi va transdisiplinar topshiriqlarni bajarishdagi qiyinchiliklarni aniqlashga qaratilgan edi.

Ekspert baholash - ta'lim sohasidagi 18 nafar mutaxassis (oliy ta'lim vakillari, malaka oshirish instituti metodistlari, maktab direktorlari, innovatsion maktablar o'qituvchilari) ishtirokida transdisiplinar metodik model muhokama qilindi va ekspert xulosalari olindi.

Pedagogik eksperiment - 4 ta maktabda (2 ta tajriba, 2 ta nazorat maktabi) ishlab chiqilgan transdisiplinar model asosida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Eksperimentda 124 nafar o'quvchi (7-8-sinflar) ishtirok etdi.

Test topshiriqlari - o'quvchilarning texnik tafakkur darajasini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan diagnostik topshiriqlar (texnik masalalarni tahlil qilish, loyihalash, algoritm tuzish, xatolarni tuzatish) qo'llanildi.

Intervyu - 12 nafar ilg'or o'qituvchi va 15 nafar iqtidorli o'quvchi bilan chuqurlashtirilgan intervyu o'tkazilib, ularning transdisiplinar yondashuv asosida ishlash tajribasi o'rganildi.

Statistik tahlil: olingan ma'lumotlar matematik-statistik usullar (o'rtacha qiymat, standart og'ish, Student mezon, korrelyatsion tahlil, faktorial tahlil) yordamida qayta ishlandi, natijalarning ishonchiligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot bosqichlari:

- 1-tayyorgarlik bosqichi (2024-yil sentabr-dekabr) - adabiyotlarni o'rganish, dasturiy hujjatlarni tahlil qilish, modelni ishlab chiqish;
- 2-asosiy bosqich (2025-yil yanvar-may) - empirik ma'lumotlarni yig'ish, pedagogik eksperiment o'tkazish;
- 3-yakuniy bosqich (2025-yil iyun-sentyabr) - olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transdisiplinar metodik modelning tuzilmasi. Tadqiqot davomida olingan nazariy va empirik ma'lumotlar asosida STEM ta'limi sharoitida o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishning transdisiplinar metodik modeli ishlab chiqildi. Model beshta asosiy komponentni o'z ichiga oladi. Motivatsion-maqsdali komponent:

- maqsad - o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish;
- vazifalar - texnik ijodkorlikka qiziqishni shakllantirish, transdisiplinar muammolarni hal qilishga motivatsi-yani oshirish, texnik kasblarga qadriyatli munosabatni rivojlantirish;
- tamoyillar - transdisiplinarlik, muammolilik, integratsiya, amaliy yo'naltirilganlik, individuallashtirish.

Mazmunli komponent:

- nazariy bilimlar - fizika, matematika, informatika, texnologiya fanlarining asosiy tushunchalari va qonuni-yatlari (integratsiyalashgan holda);
- protsessual bilimlar - texnik muammolarni tahlil qilish, loyihalash, modellashtirish, algoritm-lash, dasturlash, eksperiment o'tkazish metodlari;
- metabilimlar - bilimlarni turli kontekstlarda qo'llash, fanlararo aloqalarni tushunish, refleksiya qilish ko'nik-malari.

Mazmunli komponent quyidagi transdisiplinar mavzular asosida tuzilgan:

1. "Energiya va uning konversiyasi" (fizika, matematika, texnologiya, ekologiya);
2. "Robototexnika qurilmalari" (fizika, informatika, texnologiya, matematika);
3. "Smart-qurilmalar" (fizika, informatika, elektronika, dasturlash);

4. "Ekologik monitoring" (fizika, kimyo, biologiya, informatika);
5. "Kosmos va texnologiyalar" (fizika, astronomiya, matematika, informatika).

Jarayonli-texnologik komponent: transdisiplinar metodik modelning asosini tashkil etuvchi jarayonli-texnologik komponent ICDCO modeli ^[13] asosida ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- **1-bosqich: muammoni aniqlash va transdisiplinar kontekstni tahlil qilish** - real hayotiy muammoni taqdim etish; muammoning turli fanlar bilan bog'liqligini aniqlash; muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni belgilash.
- **2-bosqich: muammoni qismlarga ajratish (dekompozitsiya)** - murakkab muammoni kichik masalalarga bo'lish; har bir qism masala uchun tegishli fanlarni aniqlash; qism masalalar o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash.
- **3-bosqich: transdisiplinar bilimlarni o'zlashtirish** - har bir qism masala uchun zarur bo'lgan fanlararo bilimlarni taqdim etish; bilimlarni amaliy kontekstda qo'llash; turli fanlardan olingan bilimlarni o'zaro bog'lash.
- **4-bosqich: yechimni loyihalash va modellash** - mumkin bo'lgan yechimlarni ishlab chiqish; eng optimal yechimni tanlash; yechimning modelini yaratish (jismoniy model, kompyuter modeli, algoritm).
- **5-bosqich: yechimni amalga oshirish** - modelni real qurilmaga aylantirish (robot, sensor tizimi, dastur); dasturlash va montaj ishlarini bajarish; yechimni sinovdan o'tkazish. 6-bosqich: tahlil va optimallashtirish - olingan natijalarni tahlil qilish; xatolarni aniqlash va tuzatish; yechimni optimallashtirish.
- **7-bosqich: refleksiya va umumlashtirish** - jarayonni tahlil qilish; o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni umumlashtirish; yangi muammolarni hal qilishda qo'llash imkoniyatlarini belgilash. Jarayonli-texnologik komponentda qo'llaniladigan metodlar: loyiha metodi, muammoli ta'lim, evristik suhbat, "brainstorming", dizayn-fikrlash, STEAM-loyihalar, fablab texnologiyalari, teskari loyihalash (reverse engineering).

Nazorat-baholash komponenti:

- kirish diagnostikasi - o'quvchilarning boshlang'ich texnik tafakkur darajasini aniqlash;
- oraliq nazorat - har bir bosqichda o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash;
- yakuniy nazorat - loyiha himoyasi, texnik topshiriqlarni bajarish;
- kompyuterli fikrlash kompetensiyasini baholash mezonlari ^[9] asosida diagnostika.

Olingan natijalar STEM ta'limi sharoitida o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda transdisiplinar yondashuvning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ishlab chiqilgan metodik model o'quvchilarda nafaqat texnik bilim va ko'nikmalarni, balki murakkab muammolarni tahlil qilish, fanlararo aloqalarni aniqlash, kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari transdisiplinar yondashuv va texnik tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi. Qozog'istonlik tadqiqotchilarning ishlarida ta'kidlanganidek, transdisiplinar yondashuv fundamental fanlar (fizika, matematika) va profil fanlari integratsiyasini ta'minlab, talabalarning tabiiy-ilmiy va muhandislik tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi ^[4].

Ikkinchidan, transdisiplinar yondashuv TPACK modeli ^[12] bilan uyg'unlashgan holda o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, transdisiplinar model turli yoshdagi va turli tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilar bilan ishlashda moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Tadqiqotimizda 7-8-sinf o'quvchilari bilan ishlaganimizda modelning bosqichma-bosqich tuzilishi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini berdi. SpringerLink tadqiqotida ta'kidlanganidek, ICDCO modelining samaradorligiga sinf hajmi va o'quvchilarning ta'lim darajasi ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun katta sinflar va past ta'lim darajasidagi o'quvchilar uchun qo'shimcha yordam ko'rsatilishi kerak ^[13].

To'rtinchidan, transdisiplinar modelning joriy etilishi bir qator muammolar bilan bog'liq: fanlararo integratsiyani ta'minlovchi darslik va metodik qo'llanmalar yetishmaydi; moddiy-texnik baza (robototexnika to'plamlari, sensorlar, 3D printerlar) talab darajasida emas; dars soatlari va o'quv dasturlari transdisiplinar loyihalarni amalga oshirish uchun mos emas.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarida transdisiplinar yondashuv bo'yicha maxsus modullarni joriy etish;



- transdisiplinar mavzular asosida o'quv-metodik majmualar ishlab chiqish;
- maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash (STEM laboratoriyalar, robototexnika to'plamlari);
- o'quv dasturlariga transdisiplinar loyihalarni kiritish imkoniyatlarini yaratish.

Beshinchidan, transdisiplinar modelning rivojlanish istiqbollari quyidagilar bilan bog'liq:

- STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yo'nalishiga kengaytirish - san'at va dizayn komponentlarini qo'shish;
- STREAM (Science, Technology, Robotics, Engineering, Arts, Mathematics) - robototexnika va san'at integratsiyasi;
- sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish - transdisiplinar loyihalarni amalga oshirishda sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va modellashtirish.

XULOSA

STEM ta'limi sharoitida o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

- 1) texnik tafakkur bu murakkab integral tushuncha bo'lib, u kognitiv, operatsion-faoliyatli, kreativ va motivatsion-qiymatli komponentlarni o'z ichiga oladi. Texnik tafakkurning rivojlanganlik darajasi o'quvchining murakkab texnik muammolarni aniqlash, tahlil qilish, loyihalash va amaliy yechimlarni yaratish qobiliyati bilan belgilanadi;
- 2) transdisiplinar yondashuv STEM ta'limida o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. U turli fanlar chegaralarini bartaraf etib, ularning o'zaro sintezi asosida yangi bilim va metodlarni yaratishga imkon beradi, real hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilganlikni ta'minlaydi;
- 3) ishlab chiqilgan transdisiplinar metodik model beshta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: motivatsion-maqsdli, mazmunli, jarayonli-texnologik, nazorat-baholash va natijaviy.

Model ICDCO instruksional modeli asosida ishlab chiqilgan jarayonli-texnologik komponent orqali o'quvchilarning texnik tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Milliy darajadagi tavsiyalar:

- STEM ta'limi konsepsiyasini takomillashtirishda transdisiplinar yondashuvni hisobga olish;
- o'quv dasturlariga transdisiplinar loyihalarni kiritish imkoniyatlarini yaratish;
- o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida transdisiplinar yondashuv bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish;
- maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha davlat dasturini qabul qilish.

Hududiy darajadagi tavsiyalar:

- hududiy STEM markazlari va fablab laboratoriyalarini tashkil etish;
- ilg'or maktablar bazasida transdisiplinar ta'lim resurs markazlarini yaratish;
- maktablar o'rtasida tajriba almashish tarmog'ini shakllantirish;
- transdisiplinar loyihalar tanlovlari va festivallarini tashkil etish.

Maktab darajasidagi tavsiyalar:

- transdisiplinar loyihalarni amalga oshirish uchun fan o'qituvchilari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- maktab metodbirlashmalarida transdisiplinar yondashuvni muhokama qilish;
- o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan to'garak va fakultativlarni tashkil etish;
- o'quvchilarning loyiha portfoliolarini yuritish tizimini joriy etish.

Kelgusida tadqiqotni quyidagi yo'nalishlarda davom ettirish maqsadga muvofiq:

- STEAM va STREAM yo'nalishlarida transdisiplinar modellarni ishlab chiqish;
- sun'iy intellekt vositalarining texnik tafakkurni rivojlantirishga ta'sirini o'rganish;



- turli yosh guruhlari (boshlang'ich sinf, 5-6-sinflar, 9-11-sinflar) uchun moslashtirilgan modellarni yaratish;
- transdisiplinar modelning o'quvchilarning kasbiy yo'nalishiga ta'sirini uzoq muddatli istiqbolda o'rganish;
- o'qituvchilarni transdisiplinar yondashuvga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. 2019-yil 29-aprel // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. 2020-yil 5-oktyabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-5030957>
3. Atoeva, M.F., & Jo'raeva, M.T. (2025). Developing technological thinking in school students through interdisciplinary natural science connections. *Analytical Journal of Education and Development*, 5(5), 327 - 333.
4. Искакова, А.Б., Қозыбай, А.Қ., & Ериков, Е.С. (2024). Техникалық мамандықтарда іргелі және бейіндеуші пәндерді оқытуда есептің транспәндік моделін қолдану. *Bulletin of the L.N. Gumilyov Eurasian National University. Pedagogy. Psychology. Sociology Series*, 148(3), 89 - 107.
5. Koehler, M.J., & Mishra, P. (2009). What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 9(1), 60 - 70.
6. Mishra, P., & Koehler, M.J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017 - 1054.
7. Grover, S., & Pea, R.D. (2013). Computational thinking in K - 12: A review of the state of the field. *Educational Researcher*, 42(1), 38 - 43.
8. Wing, J.M. (2010). Computational thinking: What and why? *The Link Magazine*, 6, 20 - 23.
9. Kelley, T.R., & Knowles, J.G. (2016). A conceptual framework for integrated STEM education. *International Journal of STEM Education*, 3(11), 1 - 11.
10. Roehrig, G.H., Dare, E.A., Ellis, J.A., & Ring-Whalen, E. (2021). Beyond the basics: A detailed conceptual framework of integrated STEM. *Disciplinary and Interdisciplinary Science Education Research*, 3(1), 1 - 18.
11. Thibaut, L., Ceuppens, S., De Loof, H., De Meester, J., Goovaerts, L., Struyf, A., ... & Depaepe, F. (2018). Integrated STEM education: A systematic review of instructional practices in secondary education. *European Journal of STEM Education*, 3(1), 2 - 16.
12. Hutchins, N.M., Biswas, G., Maróti, M., Lédeczi, Á., Grover, S., & McElhaney, K. (2020). C2STEM: A system for synergistic learning of physics and computational thinking. *Journal of Science Education and Technology*, 29(1), 83 - 100.
13. Li, Y., & Oon, P.T. (2024). Cultivating computational thinking in STEM education: A systematic review. *Educational Technology & Society*, 27(2), 145 - 162.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.